TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	742
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDIIY MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI	749
Sultanov Anvar Abdullaevich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....	754
Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	
DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR	760
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT	764
Mamatkulova Shoir Djalolovna	
РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	769
Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.	
ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....	774
Айматова Фарида Хуразовна	
XORIJIY MOLIVAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNII	778
Xomidova Kamola G'olib qizi	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVRIPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHLATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI

Mannapova Feruza Faxriddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Biznes boshqaruvi” kafedrası assistenti
E-mail: Mannapovaferuza1995@gmail.com
ORCID: 0009-0005-9816-1877

Annotatsiya. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, xalqaro savdo hajmining kengayishi va ta'minot zanjirlarining murakkablashuvi yuk tashuvlarini tashkil etishda zamonaviy logistika yondashuvlarini joriy etishni taqozo etmoqda. Mazkur jarayonda logistik provayderlar yuk tashuvlarining samaradorligini oshirishda muhim institutsional subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Ilmiy adabiyotlarda “logistik provayder” tushunchasi turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotchilar ularni faqat transport xizmatlarini ko'rsatuvchi subyekt sifatida izohlasa, boshqalari yuk tashish zanjirini kompleks boshqaruvchi operator sifatida ta'riflaydi. Umumlashtirilgan holda aytganda, logistik provayderlar yuklarni jo'natishdan tortib yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonlarni rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi professional xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlardir.

Kalit so'zlar: yuk yetkazib berish tizimi, transport xizmatlari bozori, yuk aylanmasi, yo'lovchi aylanmasi, transport integratsiyasi, yuklarni tashish jarayoni, yuqori texnologiyali transport vositalari, mamlakatlarning transport tizimi, xalqaro aloqalar.

Abstract. The globalization of the world economy, the expansion of international trade, and the increasing complexity of supply chains require the implementation of modern logistics approaches to freight transportation management. In this process, logistics providers act as an important institutional entity contributing to the improvement of transportation efficiency. In academic literature, the term “logistics provider” is interpreted differently by various authors. Some researchers consider them solely as organizations providing transportation services, while others define them as operators managing the entire freight transportation chain in an integrated manner. In general, logistics providers are professional service organizations that plan, coordinate, and control processes from shipment to delivery to the final consumer.

Key words: cargo delivery system, transport services market, cargo turnover, passenger turnover, transport integration, freight transportation process, high-tech vehicles, transport systems of countries, international relations.

Аннотация. Глобализация мировой экономики, расширение объёмов международной торговли и усложнение цепочек поставок требуют внедрения современных логистических подходов к организации грузоперевозок. В этом процессе логистические провайдеры выступают важным институциональным субъектом, способствующим повышению эффективности перевозок. В научной литературе понятие «логистический провайдер» трактуется различными авторами по-разному. Одни исследователи рассматривают их как организации, предоставляющие исключительно транспортные услуги, другие — как операторов, комплексно управляющих цепочкой грузоперевозок. В обобщённом виде логистические провайдеры представляют собой профессиональные сервисные организации, осуществляющие планирование, координацию и контроль процессов от отгрузки до доставки конечному потребителю.

Ключевые слова: система доставки грузов, рынок транспортных услуг, грузооборот, пассажирооборот, транспортная интеграция, процесс грузоперевозок, высокотехнологичные транспортные средства, транспортные системы стран, международные связи.



KIRISH

Transport kompaniyalari bosqichma-bosqich yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashib bormoqda. Shu bilan birga, bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda transport tizimining samarali faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liq qator masalalar dolzarbligicha qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi transport tizimini yanada takomillashtirish doirasida texnik xizmat ko'rsatish darajasini oshirish va ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, infratuzilma obyektlarini rekonstruksiya qilish va yangi qurilish hajmlarini kengaytirish, transport vositalari hamda uskunalar parkini yangilash sur'atlarini jadallashtirish zarur. Bu chora-tadbirlar temir yo'l, avtomobil va quvur liniyasi infratuzilmasi, shuningdek, yuk terminallari va ombor xo'jaliklarining yanada muvozanatli rivojlanishiga xizmat qiladi. So'nggi yillarda eksport yuklarini qayta ishlashga ixtisoslashgan logistika markazlari salohiyati kengayib borayotgan bir paytda, import yuklarini qayta ishlash infratuzilmasini ham bosqichma-bosqich rivojlantirish mamlakat transport-logistika tizimining umumiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Logistika fani nisbatan yosh iqtisodiy fan bo'lishiga qaramay, u haqidagi dastlabki qarashlar bir necha asrlar oldin vujudga kelgan. Bugungi kunda logistika sohasi jarayonlarni optimallashtirish, ta'minot zanjirini boshqarish (Supply Chain Management), innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda logistika tizimlarini takomillashtirish kabi muhim masalalarning samarali yechimini topishni taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislarining logistika yo'nalishida izchil ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiqotlar olib borishiga turtki bermoqda. Umumlashtirilgan holda aytganda, ushbu sohadagi ilmiy izlanishlar logistikaning eng muhim va dolzarb jihatlarini qamrab oladi.

Logistik provayderlar faoliyatining nazariy asoslari logistika nazariyasi, tizimli yondashuv, qiymat zanjiri konsepsiyasi hamda tranzaksion xarajatlar nazariyasiga tayanadi. Xususan, R. Kouz va O. Uilyamson tomonidan ishlab chiqilgan tranzaksion xarajatlar nazariyasi logistik provayderlar xizmatlaridan foydalanishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, tashqi provayderlardan foydalanish orqali korxonalar ichki boshqaruv xarajatlarini qisqartirish va asosiy faoliyat yo'nalishlariga e'tiborni kuchaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Olimlar Tomas Goldsbi, Dipak Ayengar va Rao Sheshankar 2019-yilda transport jarayonlarini rejalashtirish, amalga oshirish, o'lchash va optimallashtirish masalalariga bag'ishlangan nufuzli hamda keng qamrovli qo'llanmani yaratdilar. Ular yetakchi logistika assotsiatsiyalari va ta'minot zanjirini boshqarish bo'yicha mutaxassislar bilan hamkorlikda yuklarni tejamkor tashish jarayonlari uchun zamonaviy tamoyillar, strategiyalar va amaliy yechimlarni ishlab chiqdilar. Shuningdek, ushbu tadqiqotlarda tashish usullari, tashuvlarning bajarilishi va nazorati, outsorsing, TMS texnologiyalari, dengiz va havo transporti hamda boshqa ko'plab masalalar atroficha tahlil qilingan.

Rossiyalik olimlar I. Afanasenko va V. Borisova 2019-yilda yuk tashuvlarini raqamlashtirish orqali transport xizmatlari sifatini va samaradorlik darajasini oshirish zarurligini ta'kidlab o'tganlar. Ularning fikricha, mavjud axborot xizmatlarini rivojlantirish, yangi integratsiyalashgan raqamli texnologik platformalarni yaratish va joriy etish, shuningdek, tarmoqni zamonaviy transport vositalari bilan ta'minlash transport-logistika tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

AQShdagi Bowling Green universiteti professori M. D. Sarder "Logistics Transportation Systems" nomli asarida (2020-yil) yuk tashuvlarini boshqarishni transport logistikasining eng muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, yuk tashuv tarmoqlarini modellashtirish usullari transport tizimlaridan foydalanishni rejalashtirishda keng qo'llaniladi hamda xarajatlarni hisoblash, narxlarni boshqarish va tovarlarni yetkazib berish jadvalini tuzish bilan bog'liq masalalarni tizimli tarzda hal etish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning uslubiy asosini transport xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish sohasidagi xorijiy va O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan fundamental tushunchalar hamda nazariy qoidalar tashkil etadi. Muallif, shuningdek, ilmiy jamoalarning transport xizmatlarini ko'rsatish tizimini rivojlantirish, transportning barcha turlaridan turli sharoitlarda foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlari natijalariga tayanadi.

Bundan tashqari, iqtisodiyotda tovarlarni tashish va iste'mol qilishning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishga oid materiallar, davlat organlarining hisobotlari va statistik ma'lumotlari, qonunchilik hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston kompaniyalarining uzoq muddatli rivojlanish dasturlari va hisobotlari tadqiqotning axborot bazasini tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida funksional yo'naltirilgan qidiruv, iqtisodiy va statistik tahlil, prognozlash hamda modellashtirishning turli usullari va vositalaridan kompleks tarzda foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Yuk tashuvlari tizimida logistik provayderlar yuk oqimlarining uzluksizligini ta'minlash, transport vositalaridan samarali foydalanish hamda vaqt va xarajatlarni optimallashtirish orqali transport-logistika tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ularning faoliyati logistika jarayonlarini tizimli tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va xizmatlar sifatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, natijada butun ta'minot zanjiri samaradorligi kuchayadi (1-jadval).

1-jadval. Logistik provayderlar evolyutsiyasi va ularning tasnifi (1PL–5PL)¹

№	Provayderlar	Tasnifi
1	1PL (First Party Logistics)	Yuk egasining logistika operatsiyalarini mustaqil ravishda amalga oshirishi bilan tavsiflanadi. Bunda transport va ombor jarayonlari korxonaning o'z resurslari hisobidan bajariladi.
2	2PL (Second Party Logistics)	Transport yoki ombor xizmatlarini ko'rsatuvchi tashqi operatorlar faoliyatini ifodalaydi. Ushbu provayderlar, asosan, alohida logistika funksiyalarini bajaradi.
3	3PL (Third Party Logistics)	Logistika xizmatlarining kompleks paketini taklif etuvchi provayderlar bo'lib, ular transport, ombor, ekspeditsiya, bojxona va axborot xizmatlarini birlashtiradi.
4	4PL (Fourth Party Logistics)	Logistika zanjirini strategik darajada boshqaruvchi integrator hisoblanadi. 4PL provayderlar bir nechta 3PL operatorlar faoliyatini muvofiqlashtirib, optimal logistika yechimlarini ishlab chiqadi.
5	5PL (Fifth Party Logistics)	Raqamli platformalar asosida faoliyat yurituvchi, tarmoq logistikasini tashkil etuvchi provayderlar bo'lib, ular elektron savdo va raqamli ta'minot zanjirlariga xizmat ko'rsatadi.

Logistik provayderlar faoliyatining rivojlanishi logistika tizimlarining murakkablashuvi hamda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ilmiy adabiyotlarda logistik provayderlar evolyutsion rivojlanish bosqichlari asosida tasniflanadi. Mazkur evolyutsiya yuk tashuvlarida logistik provayderlarning rolini oddiy ijrochi darajasidan strategik boshqaruvchi darajasiga ko'targanini ko'rsatadi.

Yuk tashuvlarini rivojlantirishda logistik provayderlarning iqtisodiy roli bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ular transport xarajatlarini kamaytirish orqali mahsulot tannaxrini pasaytirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish orqali ta'minot zanjiri barqarorligini oshiradi. Uchinchidan, logistika jarayonlarining shaffofligini ta'minlash orqali risklarni kamaytiradi.

Logistik provayderlar faoliyati yuk tashuvlari bozorida raqobat muhitining kuchayishiga olib keladi. Raqobat esa xizmatlar sifati oshishi hamda innovatsion yechimlarning joriy etilishini rag'batlantiradi. Ayniqsa, multimodal va intermodal tashuvlarda logistik provayderlarning roli tobora ortib bormoqda. Temir yo'l yuk tashuvlarida logistik provayderlar yuklarni konsolidatsiya qilish, terminal xizmatlarini rivojlantirish va tranzit salohiyatidan samarali foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa transport-logistika infratuzilmasining umumiy iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Logistika xizmatlarining iqtisodiy mexanizmlari yuk tashuvlari tizimida bozor munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizmlar quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi: tarif va narx siyosati, shartnomaviy munosabatlar, investitsiya va moliyalashtirish mexanizmlari hamda risklarni boshqarish. Tarif siyosatining moslashuvchanligi logistik provayderlar faoliyatining raqobatbardoshligini oshiradi. Shuningdek, uzoq muddatli shartnomalar yuk tashuvlarining barqarorligini ta'minlaydi va logistika zanjirida ishonch muhitini shakllantiradi.

Integratsiyalashgan boshqaruv yondashuvi transport, ombor va axborot oqimlarini yagona tizimda muvofiqlashtirilgan holda boshqarishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv logistika xarajatlarini qisqartirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini beradi.

Logistik provayderlar faoliyatini baholash ularning samaradorligini aniqlash hamda rivojlanish istiqbollari belgilashda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda baholash ko'rsatkichlari bir necha asosiy guruhlariga ajratiladi (2-jadval).

¹ Muallif ishlanmasi.

2-jadval. Logistik provayderlar faoliyatini baholash ko'rsatkichlari²

№	Baholash ko'rsatkichlari	Tavsifi
1	Vaqt ko'rsatkichlari	Yetkazib berish muddati
2	Xarajat ko'rsatkichlari	Logistika xarajatlari ulushi
3	Sifat ko'rsatkichlari	Xizmat darajasi
4	Innovatsion va raqamlashtirish ko'rsatkichlari	Xizmat ko'rsatish tezligi

KPI tizimi logistik provayderlar faoliyatini tizimli ravishda baholash imkonini beradi. KPI asosida o'tkazilgan baholash natijalari logistika strategiyasini ishlab chiqishda ishonchli ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda logistik provayderlar bozori asosan 2PL va 3PL darajadagi kompaniyalardan shakllangan bo'lib, 4PL xizmatlari hozircha cheklangan miqyosda rivojlanmoqda. Ko'plab provayderlar transport yoki ombor xizmatlariga ixtisoslashgan bo'lsa-da, kompleks logistika yechimlarini kengaytirish bo'yicha salohiyat mavjud. Ushbu holat bozor tuzilmasini diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shimcha qiymatli xizmatlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval. Logistik provayderlar faoliyatining funksional tarkibi³

№	Xizmat turlari	Ulushi, %
1	Faqat transport xizmatlari (2PL)	46
2	Transport + ombor (3PL)	34
3	Kompleks logistika (3PL+)	15
4	Strategik boshqaruv (4PL)	5

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, bozorning salmoqli qismi past qo'shimcha qiymatga ega logistika xizmatlariga to'g'ri kelmoqda. Bu holat yuk tashuvlari tizimining umumiy samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini anglatadi. Tadqiqot natijalari logistik provayderlar faoliyatida qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu omillarni bartaraf etish provayderlarning strategik boshqaruv salohiyatini kuchaytirish hamda xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

4-jadval. Logistik provayderlar faoliyatidagi asosiy muammolar⁴

№	Muammo turi	Tavsifi
1	Infratuzilmaviy	Ombor va terminal quvvatlarining yetishmasligi
2	Tashkiliy	Integratsiyalashgan boshqaruvning sustligi
3	Axborot	TMS va WMS tizimlarining yetarli joriy etilmaganligi
4	Kadrlar	Logistika menejerlari malakasini oshirish zarurati
5	Moliyaviy	Investitsiya resurslarining cheklanganligi

Mazkur muammolar logistik provayderlarning yuk tashuvlaridagi rolini asosan operatsion darajada cheklab, strategik boshqaruv imkoniyatlarini kengaytirishni talab etadi. Shu bois, logistik provayderlar samaradorligini baholashda xarajalar, vaqt va xizmat sifati ko'rsatkichlari asosiy mezonlar sifatida qo'llaniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur bobda yuk tashuvlarida logistik provayderlar faoliyatining nazariy-uslubiy asoslari kompleks tarzda yoritildi. Logistik provayderlar tushunchasi va ularning evolyutsiyasi ilmiy jihatdan asoslandi, ushbu subyektlarning yuk tashuvlari tizimidagi iqtisodiy roli ochib berildi hamda faoliyatni baholashning metodologik yondashuvlari shakllantirildi. Mazkur nazariy xulosalar keyingi boblarda logistik provayderlar faoliyatini tahlil qilish va uni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

2 Muallif ishlanmasi.

3 Muallif ishlanmasi.

4 Muallif ishlanmasi.



Shuningdek, logistik provayderlar faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, TMS va WMS tizimlarini integratsiyalash hamda ma'lumotlar almashinuvi shaffofligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. 4PL va 5PL darajadagi xizmatlarni bosqichma-bosqich joriy etish yuk tashuvlarida strategik boshqaruv sifatini yuksaltiradi. Infratuzilmani modernizatsiya qilish, kadrlar malakasini oshirish va KPI asosida baholash tizimini joriy etish orqali logistika xizmatlarining raqobatbardoshligi yanada kuchayadi. Bu esa milliy transport-logistika tizimining barqaror va izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аникин, Б. А. Аутсорсинг. Создание высокоэффективных и конкурентоспособных организаций / Б. А. Аникин, О. Б. Аникин, Т. А. Родкина [и др.]. — М.: Инфра-М, 2023. — 187 с.
2. Афонин, А. М. Транспортная логистика: организация перевозки грузов / А. М. Афонин. — М.: ФОРУМ, 2024. — 368 с.
3. Балалаев, А. С. Формирование конкурентоспособных транспортных составляющих логистических систем: монография / А. С. Балалаев. — Хабаровск: Изд-во ДВГУПС, 2017. — 223 с.
4. Бауэрсокс, Д. Дж. Логистика: интегрированная цепь поставок / Д. Дж. Бауэрсокс, Д. Дж. Клосс. — 2-е изд. — М.: ЗАО «ОЛИМП-БИЗНЕС», 2005. — 640 с.
5. Беспалов, Р. Спрос на логистического посредника / Р. Беспалов // Логистика и управление. — 2009. — № 11.
6. Большая советская энциклопедия / гл. ред. А. М. Прохоров. — 3-е изд. Т. 1–30. — М.: «Сов. энциклопедия», 1969–1978.
7. Василенок, В. Л. Организация интермодальных перевозок: международный и российский опыт / В. Л. Василенок, В. В. Негреева, Я. В. Шевченко // Научный журнал НИУ ИТМО. Серия «Экономика и экологический менеджмент». — 2025. — № 4. — С. 70–77.
8. Xo'jaev, F. Logistika: darslik. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022.
9. Xo'jaev, F., Muxtorova, I. Xalqaro logistika: darslik. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
